

GILAM MAHSULOTLARI SIFATINI BAHOLASH

Hamadullayeva N I
Abdurakhmonov A A

Dotsent

Yusupova N B

Professor

Siddiqov P S

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

Annotatsiya: Maqolada xalq amaliy san'at turlaridan bo'lgan gilam mahsulotlarining sifatini baxolash masalalari ko'rib chiqilgan. Sifat tizimlarida mahsulot sifatini baholashning iste'moldagi hamma xossalarini kompleks tahlil va xolisona baholanishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Sifat, gilam, xomashyo, arqoq, baxolash

O'zbek xalq amaliy san'ati ildizi ming yillarga borib taqaluvchi qadimiy tarix va boy an'analariga ega. Ne baxtki, shu bebaho meros – an'anaviy badiiy hunarmandchilik san'atining ko'plab turlari bugunga qadar saqlanib qolgan. Xalqimizning benazir amaliy san'ati, xususan, gilam to'qish hunarida yorqin aks etgan.

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq amaliy san'atini, shu jumladan tarixiy an'analarimizni o'zida mujassam etgan, ota-bobolarimizdan qadimiy meros bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ipak va jundan qo'lda gilam to'qish sohasini rivojlantirish va noyob san'at asari hisoblanadigan ushbu gilamlarni bozor talablariga uyg'unlashtirish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni mazkur sohaga keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida «Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Prezident qarori bilan (PQ-4759-son, 26.06.2020 y) mamlakatimizda milliy hunarmandchilikning qo'lda gilam to'qish turini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilandi.

Qarorda gilam uchun sifatli xom ashyo - jun hamda ipak yetishtirish salmog'ini oshirishdan tortib, qo'lda gilam to'qish bo'yicha tadbirkorlik tashabbuslarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tayyor mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq qator vazifalar belgilangan.



Gilamchilik - tabiiy (jonivorlar va o'simliklardan olinadigan tolalar) va sun'iy tolalardan foydalanib turli xildagi gilamlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmog'i hisoblanadi. Gilamchilik badiiy hunarmandlik sohasi sifatida turli davlatlarda o'ziga xos shaklda rivojlanib kelgan.

O'zbekistonda gilamdo'zlik xalq hunarmandchilikning qadim turlaridan biri hisoblanib, yarim ko'chmanchi (chorvadorchilik) tarzda hayot kechiruvchi yung mahsulot (asosan qo'y va tuya)lariga juda boy mahalliy kabilalarning asosiy mashg'uloti bo'lgan.



Qo'lda gilam to'qish nihoyatda sermashaqqat ish, to'quvchidan qunt, did va mahorat talab qiladi.

To'qilayotgan gilamlar jun, ipak va paxta aralashmalaridan tayyorlanadi. Mazkur gilamlar o'zining ekologik jixatdan tozaligi, mayinligi va sifati bilan ko'plab xorijlik hamda mahalliy axoli o'rtasi ma'lum va mashhur.

Hozirgi kunda gilam ishlab chiqaruvchilar dunyo bozoriga juda keng assortimentdagi gilam turlarni taklif etmoqda. Gilamlarni har biri xaridor sotib olayotganda albatta uning sifatiga katta e'tiborni qaratadi.

Gilamlar sifatini baxolashda iste'mol xususiyatlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- ❖ ijtimoiy mo'ljallanganligi
- ❖ funksional
- ❖ chidamlilik
- ❖ ergonomik
- ❖ estetik
- ❖ ekologik va iste'mol qilish xavfsizligi.

Sifat tizimlarida mahsulot sifatini baholashning uslubiy asoslariga, ayniqsa, mahsulotni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishda alohida talablar qo'yiladi, bunda quyidagilar deyarli to'liq ta'minlanadi:

* Mahsulotning iste'moldagi hamma xossalarini kompleks tahlil va xolisona baholanishi, xavfsizligi va ekologikligi namoyon bo'lish imkoniyati;

* Keltirilgan baholanishga asoslanib, iste'molchi tomonidan mahsulotning ishlatilishdagi va ekologikligidan xavfdan hamda mahsulot va uning sifatini (amaldagi bozor sharoitida) noto'g'ri baholanish xavfidan ijtimoiy himoya qilishga zamin yaratish.

Mahsulot sifatining darajasini baholanishining asosiy maqsadi:

- * Yangi mahsulot turlarining parametrlarini asoslash;
- * Mahsulotni, standartlarini, Texnik effektini ishlab chiqishda texnikaviy topshiriqlar tayyorlash hamda yangi mahsulot uchun, uning texnikaviy darajasi kartalarini tuzish;
- * Ishlab chiqariluvchi mahsulotning sinov natijalariga qarab qaror qabul qilish;

- * Mahsulotni ta'mirlash bo'yicha qaror qabul qilish;

- * Mahsulotni bozorda yetarlicha qadrlanishiga va arziydigan bahoda sotilishiga zamin yaratish.

- * Belgilangan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining nomenklaturasini tanlash, bu ko'rsatkichlarining qiymatlarini aniqlash va ularni asos bo'luvchi qiymatlar bilan taqqoslashni o'z ichiga oluvchi ishlarning yig'indisi mahsulot sifatining darajasini baholash deb ataladi.

Mahsulot sifatining darajasini baholashda turli usullardan foydalaniladi: differensial, kompleks, aralashgan va statistik usul va boshqalar.

- *Differensial usul mahsulotning birgina ko'rsatkichidan foydalanishga asoslangan mahsulot sifatining baholash usulidir. Differensial usul baholanuvchi mahsulot sifatining ko'rsatkichiga asos bo'luvchi ko'rsatkich bilan taqqoslashga asoslangan. Masalan, bir korxonadan chiqarilayotgan uskunaning ishlash muddati 8 yilni, ikkinchi korxonada esa bu raqam 12 yilni tashkil etadi, asos bo'luvchi qiymat asos bo'luvchi qiymatga nisbatan past, ikkinchisida esa balanddir. Bu ko'rsatkich uning ishlash muddatini yaxshilanishi natijasida erishilgan.

Mahsulot sifatining kompleks ko'rsatkichlarining qo'llanilishiga asoslangan baholash usuli – kompleks usuldir. Masalan, korxonalarning sifatini baholashda umumlashtirilgan sifat ko'rsatkichi – bu ularning yillik unumdorligi tushuniladi.

- * Aralashgan usul – bu bir vaqtda ham birgina, ham kompleks ko'rsatkichlardan foydalanib, mahsulotning sifati baholanadi.

- * Statistik usulda mahsulot sifatini baholashda matematik statistika usullaridan foydalaniladi.

- * Organoleptik usulda – mahsulot sifati tashqi ko'rinishi, rangi, berilgan bezaklari, bezaklarning mavzuiga doir to'g'ri kelishi, shakli, ko'rish orqali aniqlanadi.

- * Tajribaviy usulda mahsulotning kimyoviy tarkibi, fizikaviy, mikrobiologik, texnologik xususiyatlarini aniqlanadi. Natija raqamlarda ifodalanadi, lekin vaqti uzoqdir.

- * Ekspert komissiyasi 2 guruhdan iborat bo'lib, ekspert va ishchi guruhi hisoblanadi. Ekspert guruh mahsulotlarga baho beradi, ishchi guruhi esa texniktashkiliy ishlar: so'rov ishini tashkil ettish, anketalarni tarqatish va yig'ish, ekspert baholarni qayta ishlash va analiz qilish ishlarini bajaradi. Mahsulotlarga baho berishda komissiya a'zolarini 2/3 ovozi qabul qilindi deb ataladi. Ekspert baholashda 5; 10; 40 yoki 100 balli tizimlar qo'llaniladi. Ballar baholash davrida yoki muhokama davrida qo'yiladi.

Gilam va gilam buyumlar assortimentining tola tarkibi bo'yicha tahlili shuni ko'rsatdiki, sotilayotgan gilam va gilam buyumlarining 80 % ini sun'iy va sintetik iplar hamda kalavalardan ishlab chiqarilgan buyumlar, 15 % ini yarim jundan ishlab chiqarilgan buyumlar va 5 % ini toza jundan ishlab chiqarilgan gilam va gilam buyumlar assortimenti tashkil etmoqda.

Gilam va gilam buyumlarining sifat ko'rsatkichlari ikki katta guruhga bo'linadi va buyumlarning sifatini baholashda qo'llaniladi:

- ❖ organoleptik usul yordamida

❖ nuqsonlarni baholash usul yordamida

Gilam va gilam buyumlarining sifat ko'rsatkichlari normativ-texnik hujjatiga binoan 40 ballik sistema orqali baholanadi.

1) Gilam mahsulotlarini organoleptik usulda baholash

Gilam Turlari			
Sifat ko'r sat kichlari			
badiiyligi	18	15	18
naqshi va ranglar ning o'zaro mosligi	10	6	10
tuzilishi	10	8	6
JAMI	38	29	34

Ishlab

chiqarilayotgangilamlar assortimentining tashqi ko'rinishini organoleptik usulda baholash natijalaridan ma'lum bo'ldiki, "Hukmdor" gilam turi badiiyligi, naqshi va ranglarning o'zaro monandligi, tuzilishi jihatidan baholaganda umumiy 38 ball to'plab, oliy navli gilam deb baholandi. "Imperator" gilam turi umumiy 29 ball to'plab 2-

navli gilam deb baholandi. "Sultan gold" gilam turi umumiy 34 ball to'plab 1-navli gilam deb baholandi.

2) Ishlab chiqarilish jarayonida vujudga kelgan nuqsonlarning hajmi soni bo'yicha gilam va gilam buyumlari 2 navga bo'linadi.

Nuqsonlarning turi va o'lchami	Nuqsonlarni baholash (ballarda)		
			
Tuk uzunligining harxilligi	-	20sm 4 ball	30sm 4 ball
Rang tuslarining harxilligi	-	3 ball	3 ball
Naqshlarning buzilganligi	-	3sm 7ball	-
Teskari tomonda dog'larning mavjudligi	5sm 2ball	10sm 4 ball	-
JAMI	2 ball	18 ball	7 ball

Standart talabiga ko'ra 1-nav gilamlarida mavjud bo'lgan nuqsonlarga

qo'yilgan bali 10 balldan oshmasligi kerak bo'lsa, 2-nav gilamlarida mavjud

bo'lgan nuqsonlarga qo'yilgan ballar 20 balldan oshmasligi kerak.

Gilamlarda mavjud bo'lgan nuqsonlarni baholashda quyidagi natijalar olindi:

1. "Hukmdor" gilamida bitta nuqson teskari tomonida 5 smda dog'ning mavjudligi 2 ball bilan baholandi. Standart talabiga ko'ra 1-nav deb baholandi (1-nav 5 ballgacha).

2. "Iperator" gilamini

baholashda 4 ta nuqson mavjudligi aniqlandi: tuk

uzunligining har xilligi 20 sm da 4 ball, rang tuslarining har xilligi 3 ball, naqshlarining buzilganligi 3 smda 7 ball, teskari tomonida yog'li dog'larning mavjudligi 10 sm da 4 ball. Umumiy nuqsonlarga berilgan ballarning yig'indisi 18 ballni tashkil etib, Standart talabiga ko'ra brak deb hisoblanib, gilam buyumlarga kesish uchun qayta sexlarga yuborildi.

3.“Sultan gold” gilamini baholashda 2 ta nuqsonlar mavjudligi aniqlandi: tuk uzunligining har xilligi 30 sm da 4 ball, rang tuslarining har xilligi 3 ball. Umumiy nuqsonlarga berilgan ballarning yig'indisi 7 ballni tashkil etib, standart talabiga ko'ra 2-nav deb baholandi (2-nav 15 ballgacha).

Gilam va gilam mahsulotlarini saqlash GOST 7000-80 va GOST 23348-78

bo'yicha amalga oshiriladi. Qadoqlangan gilamlar yong'in xavfsiz ligi qoidalariga muvofiq quruq, shamollatiladigan joyda, ifloslanish, mexanik shikastlanish va quyosh nuri ta'siridan saqlaydigan sharoitlarda saqlanishi kerak.

Yangi ishlanmalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlari doimiy

ravishda takomillashtirilmoqda, shu bilan birga materiallarni qayta ishlashning qadimiy texnologiyalari va usullaridan faol foydalanilmoqda. Gilam mahsulotlarini

ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida doimiy ravishda qattiq sifat nazoratidan o'tadi va barcha xalqaro standartlarga javob beradi.

Gilamdo'zlik mahsulotlarining sifati va dizayni, turlari, rang-barang ko'rinishlari muzeyga tashrif buyurayotgan nafaqat yurtdoshlarimizni, balki chet ellik mehmonlar, sayyohlarni ham lol qoldirayotgani har birimizni behad quvontiradi. nafaqat bizda, balki hududlarimizdagi deyarli barcha muzeylarda ham saqlanmoqda. Hulosa qilib aytganda, O'zbekiston gilamdo'zlik san'ati, milliy gilamdo'zlikning noyob namunalari xalq merosining muhim qismi bo'lib, uni asrash va rivojlantirish kelajak avlod uchun madaniy boylikni saqlab qolishda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. Mehnat. Toshkent. 1991. –b. 334-335.
2. N.B.Yusupova «Gilam ishlab chiqarish texnologiyasi va badiiy bezash» Darslik-T.: «Fan ziyosi», 2023 yil, 530 bet.
3. P.S. Siddiqov, N.B.Yusupova, D.G.Aliyeva, N.R.Sodiqova, V.J.Murodov, D.T.Nazarova «To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari». T.: «FAN ZIYOSI», 2022. 295 b.
- 4.Yusupova N.B., Xamraeva S.A. The Importance of the extension tool in reducing the inequality of yarn //The American of Journal Engineering and Technology, 2020, 5.32, 39-44.